



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-dekabrda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 50 117,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 4,1 %ga o'sdi.

2019 yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 17 164,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakillantirishda Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,8 %ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-dekabr nisbatan, %da
	yanvar-dekabr 2018 yil	yanvar-dekabr 2019 yil	
<b>I. YaHM</b>	<b>38 774,3</b>	<b>50 117,8</b>	<b>104,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 481,5	46 542,1	103,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	2 292,8	3 575,7	108,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>36 481,5</b>	<b>46 542,1</b>	<b>103,9</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>11 042,5</b>	<b>11 482,7</b>	<b>93,8</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>16 700,9</b>	<b>24 179,0</b>	<b>110,4</b>
sanoat	15 395,0	22 047,4	108,2
qurilish	1 305,9	2 131,6	135,9
<b>Xizmatlar</b>	<b>8 738,1</b>	<b>10 880,4</b>	<b>104,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 539,2	2 983,9	103,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 045,3	2 331,2	102,5
boshqa xizmat tarmoqlari	4 153,6	5 565,3	105,7



Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, (YaHM tarkibidagi ulishi – 24,7 %), sanoat – 108,2 % (47,4 %), qurilish – 135,9 % (4,6 %), xizmatlar – 104,2 % (23,3 %)ga o'sdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'iningda 93,8 % ga kamaydi.

### 2019 yil yanvar-dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 92,9 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,1 %ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 5,6 % punktga kamaydi va hisobot yilida 24,7 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 6,2 % punktga o'sdi va 52,0 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 23,3 %ni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-dekabr (23,9 %) bilan taqqoslanganda 0,6 % punktga kamaydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

### 2018 yil yanvar-dekabr



### 2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar





Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,4 %ni (2018 yil yanvar-dekabr – 7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,0 %ni (5,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 11,9 %ni (11,3 %) tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)




- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

YaHM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasining ta'siri 1,0 f.p. tashkil etdi. Ushbu sohada qo'shilgan qiymatning 4,2 % ga o'sishi kuzatildi. Shundan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 3,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 2,5 % ga va boshqa xizmatlar 5,7 % ga o'sdi.

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 35,9 % ga o'sdi. YaHM ning mutloq o'sishi qurilish tarmog'ining ijobiy hissassi 1,3 f.p. darajasida baholandi.

2019 yil yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6,2 % darajasida kamayish qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaHM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri -1,9 f.p. ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-dekabrda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissassi






2019 yil yanvar-dekabrda YaHM deflyatori indeksi 2018 yil yanvar-dekabrda narxlarga nisbatan 124,1 foizni tashkil etadi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari mahsulotga sof soliqlarda – 143,9 % va sanoat tarmog'ida – 132,4 % qayd etildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qurilishda – 120,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 110,9 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 114,0 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 111,2 %, boshqa xizmat tarmoqlarida – 126,7 % qayd etildi.

### 2019 yil yanvar-dekabrda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi



Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul:  
Sh. Bekpo'latov  
Tel.: (0371) 230-86-57